

QONUN USTUVORLIGI – ADOLAT GAROVI

Sulaymonova Madina Qurbonovna**E-mail:** sulaymonovamadina084@gmail.com*Buxoro davlat universiteti “Tarix va yuridik” fakulteti**5-2 YURS 25 guruh 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada qonun ustuvorligi tamoyilining adolatli jamiyatni barpo etishdagi oʻrni va ahamiyati tahlil qilinadi. Qonun ustuvorligi va adolat tushunchalarining oʻzaro bogʻliqligi, shuningdek sud hokimiyatining mustaqilligi hamda inson huquqlarini taʼminlash masalalari yoritiladi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasida qonun ustuvorligini mustahkamlashga qaratilgan huquqiy islohotlarning amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: qonun ustuvorligi, adolat, huquqiy davlat, sud hokimiyati, inson huquqlari, huquqiy madaniyat, konstitutsiya, qonuniylik, tenglik, huquqiy islohotlar.

KIRISH

Adolatga boʻlgan ehtiyoj jamiyat paydo boʻlgan kundan boshlab insoniyat tafakkurining markazida turib kelgan. Tarixiy tajriba shuni koʻrsatadiki, adolat tasodifan yuzaga kelmaydi, balki u qatʼiy huquqiy qoidalar va ularning barchaga teng tatbiq etilishi orqali taʼminlanadi. Shu maʼnoda, qonun ustuvorligi tamoyili nafaqat huquqshunoslik fanining nazariy asosi, balki jamiyat barqarorligi va ijtimoiy adolatning muhim kafolati sifatida eʼtirof etiladi. Qonun ustuvorligi mavjud boʻlgan jamiyatda shaxs manfaatlari davlat hokimiyatining ixtiyoriy qarorlaridan himoyalanganadi. Huquq nazariyasida qonun ustuvorligi tushunchasi davlat va shaxs oʻrtasidagi munosabatlarni muvozanatga soluvchi asosiy mexanizm sifatida talqin etiladi. Xususan, A.V. Dicey tomonidan ishlab chiqilgan “Rule of Law” konsepsiyasida qonun oldida tenglik, huquqiy aniqlik va sud hokimiyatining ustuvorligi asosiy tamoyillar sifatida koʻrsatilgan. Xalqaro huquqiy hujjatlarda ham qonun ustuvorligi inson huquqlari va erkinliklarini taʼminlashning zaruriy sharti sifatida belgilangan boʻlib, u adolatning huquqiy ifodasi hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasida qonun ustuvorligi tamoyili Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy yoʻnalishi sifatida qoraladi. Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida eʼtirof etilishi davlat organlari faoliyatida adolat va qonuniylik ustuvor boʻlishini talab etadi. Shu bois, qonun ustuvorligi masalasini ilmiy jihatdan oʻrganish va tahlil qilish adolatli jamiyatni barpo etish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Qonun ustuvorligini o'rganishda uning adolat tamoyili bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilindi. Tadqiqotda analitik va sintez metodlari qo'llanilib, qonun oldida tenglik, sud mustaqilligi va javobgarlikning muqarrarligi aniqlangan. Shu bilan birga, qiyosiy-huquqiy yondashuv milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy standartlar bilan solishtirish orqali qonun ustuvorligining ahamiyatini ko'rsatdi. Mantiqiy-huquqiy tahlil qonunlar va adolatning mazmuniy uyg'unligini aniqlashga xizmat qilgan. Tizimli yondashuv orqali davlat hokimiyati organlari va sud tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, qonun ustuvorligi faqat normativ hujjatlar mavjudligi bilan emas, balki ularni amalda tatbiq etish mexanizmlari bilan mustahkamlanadi. Shu tarzda, metodologik yondashuv qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarini ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan ishonchli tahlil qilish imkonini beradi.

MUHOKAMA VA TAHLILLAR

Qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari huquqiy davlatning poydevorini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida bu tamoyil Konstitutsiya va boshqa asosiy qonunlar orqali mustahkamlangan. Masalan, Konstitutsiyaning 19-moddasi fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlaydi, 130–140-moddalar sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, Fuqarolik kodeksi shaxslararo munosabatlarda adolatni, Jinoyat kodeksi esa jinoyat va javobgarlikning muqarrarligini kafolatlaydi. Amaliy jihatdan qonun ustuvorligi faqat kodekslar bilan emas, balki prezident qarorlari va farmonlari orqali ham ta'minlanadi. Masalan, Prezidentning 2017-yil 2-iyun "Sud tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori sud tizimini mustahkamlash va adolatni ta'minlashga qaratilgan. Shu tarzda, sud hokimiyatining mustaqilligi va fuqarolarning qonuniy huquqlari real hayotda himoyalangan. Bundan tashqari, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va Advokatlik faoliyati to'g'risidagi qonun fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytiradi, shuningdek, adolatni ta'minlaydigan amaliy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Inson huquqlari kafolatlari to'g'risida qonun ham qonun ustuvorligini amalda tatbiq etishning huquqiy bazasini kengaytiradi. So'nggi yillarda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bu chora-tadbirlar fuqarolarning qonunlarga hurmatini oshirish, davlat organlarining faoliyatini shaffof qilish va sud tizimida adolatni yanada mustahkamlashga qaratilgan. Shu bilan birga, jamoatchilik nazorati va fuqarolar ishtiroki qonunlarning amalda to'liq tatbiq etilishini ta'minlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, qonun ustuvorligi – adolatning eng ishonchli garovi bo'lib, faqat qonunlar mavjudligi bilan emas, balki ularni amalda tatbiq etish, sud tizimining mustaqilligi va jamoatchilik nazorati bilan mustahkamlanadi. O'zbekiston huquqiy tizimi bu tamoyilni Konstitutsiya, kodekslar, prezident qarorlari

va farmonlari orqali hayotga tatbiq etishga intiladi. Shu bilan birga, fuqarolarning huquqiy madaniyati va qonunlarga hurmati jamiyatda adolatni qaror toptirishga xizmat qiladi. Har bir normativ hujjat va amaliy mexanizm bir-birini to'ldiradi, shuning uchun qonun ustuvorligi – nafaqat huquqiy tamoyil, balki jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligining kafolati. Ushbu maqola shuni ko'rsatadiki, adolatga erishish – tasodif emas, balki bilim, huquqiy ong va faol jamiyatning natijasidir. Shu bois, qonun ustuvorligi va adolatga intilish har bir fuqaro, davlat organi va jamoatchilikning birgalikdagi mas'uliyati ekanini unutmaslik lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasi "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4551-sonli qarori //https://lex.uz/uz/docs/-4647329
3. O'zbekiston Respublikasi "Sud tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni //https://lex.uz/docs/-3107036